

**SHAXSGA DOIR MA'LUMOTLARNING QONUNIY ASOSLARI,  
AHAMIYATI VA ULARNING HAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING  
O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

*Sharipov Humoyun Hamid o'g'li*

*O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qoshidagi Yuristlar malakasini oshirish markazi O'quv jarayonini tashkil etish va nazorat qilish bo'limi bosh mutaxassisi*

**Anotatsiya:** Mazkur maqola jamiyatda shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish ijtimoiy-huquqiy munosabatlarda qanday o'rinn egallashi, uning shaxsiy hayot daxlsizligi huquqi bilan o'zaro bog'liqligi, shaxsga doir ma'lumotlar sir saqlanishining o'ziga xos xususiyatlari, tushunchasi, turlari va jamiyatimizdagi ahmiyati taxlil qilingan. Shuningdek, suniy intellektning shaxsga doir ma'lumotlar havfsizligiga ta'siri, shaxsga doir ma'lumotlarning daxlsizligini ta'minlashda milliy va xalqaro qonunchilikda belgilangan normalar yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** shaxsga doir ma'lumotlar tushunchasi, mulkdor, operator, himoya, maxfiylik, shaxsiy hayot daxlsizlik huquqi, suniy intellekt.

Hozirgi kunda jamiyatda shaxslar o'rtasida turli xil elektron xizmatlarning keng tarqalishi oqibatida ijtimoiy munosabatlar ham yangi tus olib rivojlanib bormoqda. Bunday turdagи elektron xizmatlar, bir tomonidan, hayotimizni sezilarli darajada osonlashtiradi, biroq boshqa tomonidan esa shaxsiy ma'lumotlarimizni himoya qilish muammosini, ularning tarqalishi xavfi va boshqa noqonuniy xatti-harakatlar natijasida uchinchi shaxslar tomonidan noqonuniy foydalanish xavfini vujudga keltiradi. Axborot texnologiyalari rivojlanib borayotgani sari shaxsga doir ma'lumotlarning huquqiy ahmiyati, ularni normativ-huquqiy hujjalarni orqali muhofazasini ta'minlash hamda himoya qilishga bo'lgan e'tibor ham ortib bormoqda. Raqamli ma'lumotlar katta rol o'ynaydigan bugungi dunyoda shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish tobora muhim ahmiyat kasb etmoqda. O'zbekiston Respublikasida ham shaxsga

doir ma'lumotlarni himoya qilish maqsadida 2019-yilda "Shaxsga doir ma'lumotlar to‘g‘risida"gi 547-sonli alohida qonun hujjati qabul qilingan bo‘lib, ushbu qonunga muvofiq muayyan jismoniy shaxsga taalluqli bo‘lgan yoki uni identifikatsiya qilish imkonini beradigan, elektron tarzda, qog‘ozda va (yoki) boshqa moddiy jismda qayd etilgan axborotlar shaxsga doir ma'lumotlar ekanligi qayd etilgan. Mazkur qonunga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat personallashtirish markazi shaxsga doir ma'lumotlar sohasidagi vakolatli davlat organi qilib belgilangan. Ushbu qonun, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, to‘plash, ishlatish va saqlash bo‘yicha aniq qoidalarni belgilaydi. Ushbu qonunda, shaxsiy ma'lumotlarning tarqatilishiga ruxsat olishning muhimligi, ma'lumotlar subyektlarining huquqlari, ma'lumotlarni himoya qilishni nazorat qiluvchi davlat organlari haqida keng tasavvur mavjud. Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish borasida O‘zbekistonda ham yangi texnologiyalarni joriy etish ishlari amalga oshirilmoqda. Misol uchun, davlat organlari tomonidan raqamlı identifikatsiya tizimlari va elektron hukumat xizmatlarini rivojlantirishga qaratilgan tashabbuslar ko‘zga tashlanmoqda. Bu tizimlar, fuqarolarning shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilishni ta'minlaydi va shu bilan birga, fuqarolarning turli xizmatlardan foydalanishini yanada qulaylashtiradi. Shuningdek, yurtimizda, ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash maqsadida, o‘zgarishlar va yangilanishlar doimiy ravishda amalga oshirilmoqda. Bu tizimlar foydalanuvchilarining shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilishni va ularning xavfsizligini kafolatlashni ta'minlashga xizmat qiladi. Shaxsga doir ma'lumotlar dunyo bo‘ylab ko‘plab qonunlar va texnologiyalar orqali himoya qilinadi. Shaxsiy hayot daxlsizlik huquqi har bir inson o‘z shaxsiy hududiga ega bo‘lish huquqiga ega ekanligini anglatadi. Shu sababli ham shaxsga doir ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlanishi hamda himoya qilinishi har bir shaxsning konstitutsiyaviy huquqi sifatida kafolatlanishi lozim. Shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish yuqori huquqiy ahamiyatga ega, chunki u shaxsga doir ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlaydi va shaxsiy hayot daxlsizligi huquqini himoya qiladi. Shaxsga doir ma'lumotlarni samarali himoya qilish nafaqat fuqarolarning xavfsizligini ta'minlashga yordam beradi, balki

demokratik tamoyillar va huquqiy davlatni kafolatlashning muhim elementidir. Shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilishga mas'uliyatli munosabat davlat uchun ham, har bir fuqaro uchun ham huquqiy tartibning barqarorligi ta'minlash uchun zarurdir.

Shaxsga doir ma'lumotlarning alohida turlarga ajratilishi va tasniflanishi muxim ahamiyat kasb etadi deb bemalol ayta olamiz. Qonunchiligidan shaxsga doir ma'lumotlar alohida turlarga ajratilmaganligi natijasida ushbu ma'lumotlardan foydalanishda turli hil tushunmovchiliklar kelib chiqishi tabiiy holdir. Shu sababli, shaxsga doir ma'lumotlarning turlari haqida to'xtaladigan bo'lsak, ularni umumiylashtirish, maxsus va biometrik ma'lumotlar kabi turlarga ajratish mumkin.

Umumiy ma'lumotlar qatoriga insonning ism-familiyasi, pasporti va boshqa shaxsiy hujjatlaridagi qaydlar, tug'ilgan sanasi va joyi, e-mail manzili, yashash, o'qish va ishslash joylari, oilaviy, ijtimoiy va mulkiy holati, qayerda ta'lim olgani, qaysi kasb egasi ekanligi, daromadi qanchaligi kabi ma'lumotlar kiradi. Telefon raqamlari faqat egasining ism-familiyasi bilan birga qayd etilgan hollardagina shaxsga doir ma'lumotlar toifasiga mansub bo'ladi. Transport vositasining davlat raqami, kommunal-turarjoy xo'jaligining hisob raqami kabilar esa shaxsga doir ma'lumot hisoblanmaydi. Chunki ulardan birinchisi – bevosita avtomobilga tegishli bo'lsa, ikkinchisi – uy-joyga taalluqlidir.

Maxsus ma'lumotlar deganda, shaxsning irqiy va milliy mansubligi, siyosiy, diniy va falsafiy qarashlari, sog'ligening holati, intim, ya'ni maishiy hayoti bilan bog'liq ma'lumotlar tushuniladi.

Biometrik ma'lumotlar – insonning shaxsini aniqlash imkonini beradigan fiziologik va biologik xususiyatga ega shaxsiy ma'lumotlardir. Masalan, shaxsning DNKsi, ovozi, ko'z qorachig'i, barmoq izlari, yuz qiyofasi, bo'yisi, vazni bilan bog'liq ma'lumotlar shular jumlasiga kiradi.

Shaxsga doir ma'lumotlar – bu har bir insonning shaxsiy hayoti, ishlari, ijtimoiy faoliyati yoki boshqa shaxsiy ma'lumotlarini o'z ichiga olgan to'plamadir. Ular nafaqat fuqarolik huquqlari va erkinliklarini himoya qilish, balki zamonaviy

texnologiyalar va raqamli dunyoda xavfsizlikni ta'minlashda ham muhim ahamiyatga ega.

Shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilinishi shaxsiy hayot daxlsizligi huquqini ta'minlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu o'rinda shaxsga doir ma'lumotlar himoya qilinishining shaxsiy hayot daxlsizligi huquqi bilan bog'liqligini ham ko'rib o'tsak.

Inson huquqlari murakkab va ko'p qirrali hodisa hisoblanib, ularning kelib chiqishi, ijtimoiy ildizlari tarixiy, ijtimoiy-madaniy taraqqiyotning ming yilliklarni bosib o'tgan va doimo siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, falsafiy ma'lumotlarning diqqat markazida bo'lgan azaliy muammolaridan biridir. An'anaga ko'ra, insonning shaxsiy hayot daxlsizlik huquqi, uy joy daxlsizligi, yozishmalar siri kabi tabiiy huquq va erkinliklari davlat tomonidan berilmaydi, balki inson tug'ilishi bilan paydo bo'ladigan huquqlardir. Davlat esa bunday huquq va erkinliklarni faqat qonun bilan tan olishi va mustahkamlashi mumkin. Shaxsiy hayot daxlsizlik huquqining konstitutsiyaviy kafolatlari masalasi hozirgi davr huquqiy maydondagi eng muhim masalalardan biri hisoblanadi. Davlat qonun ustuvorligiga erishish uchun insonning asosiy huquqlarini ta'minlashning maxsus mexanizmlariga ega bo'lishi kerak. Yuridik fanda nisbatan yaxshi yo'lga qo'yilgan huquqiy tartibga solish mexanizmga asoslanib, insonning asosiy huquqlaridan biri hisoblangan shaxsiy hayot daxlsizligini ta'minlashning konstitutsiyaviy-huquqiy mexanizmi konstitutsiyaviy va huquqiy vositalarning qanchalik ishlayotganligida ko'rindi.

Ayniqsa, raqamli makonning jadal rivojlanishi davrida shaxsiy hayot daxlsizligi kafolatlarini ta'minlash masalalari tobora dolzarbligini ko'rsatmoqda. Shaxsga doir ma'lumotlarning maxfiyligini qonun bo'yicha himoya qilish jismoniy shaxslar, tijorat tashkilotlari, davlat idoralari, huquqni muhofaza qilish organlari va milliy xavfsizlik xizmatlari manfaatlaridan kelib chiqqan holda shakllantiriladi. Shaxsiy hayot daxlsizligi va shaxsga doir ma'lumotlarning havfsizligini ta'minlash sohasida bir qancha xalqaro miqyosda va milliy qonunchiligidan normalar belgilab qo'yilgan. Yashash, erkinlik va shaxsiy hayot

daxlsizlik huquqi BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1948-yil 10-dekabrdan qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 3-moddasi bilan kafolatlangan. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 12 – moddasida “Hech kim uning shaxsiy hayotiga, oilasiga, uy-joyiga, yozishmalar, sha’ni va obro’siga tajovuz qilish yoki o‘zboshimchalik bilan aralashishi mumkin emas. Har bir inson bunday aralashuv va hujumdan himoyalanish huquqiga ega” ekanligining ifodalanishi asosiy tamoyillardan biri shaxsiy hayot daxlsizligi, shaxsiy va oilaviy sirlarga bo‘lgan huquqni rivojlantirishning yangi bosqichini belgilab bergen.

Shaxsga doir ma'lumotlarning himoyasi bo'yicha xorijda bir qancha muvaffaqiyatli tizimlar va qonunchilik choralar joriy etilgan. Masalan, Evropa Ittifoqi 2018 yilda yangi Umumi shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish tartibini joriy etdi. GDPR shaxsga doir ma'lumotlarni toplash, saqlash, ishlatish va tarqatishning aniq qoidalarini belgilaydi. Uning asosiy maqsadi – fuqarolarning ma'lumotlaridan foydalanishning shaffofligini ta'minlash va foydalanuvchilarni zararli yoki noqonuniy ma'lumotlar ishlatilishidan himoya qilishdir. GDPR shuningdek, kompaniyalar uchun maxsus majburiyatlar qo'yadi, jumladan, ma'lumotlarni toplashda foydalanuvchilarning ruxsatini olish, ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash va zarar ko'rgan shaxslarning huquqlarini himoya qilish. Shu bilan birga, qonunlar va tartiblar buzilgan taqdirda, jiddiy jazolar va moliyaviy jarimalar qo'llaniladi. AQShda ham shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha qator qonunlar mavjud. Masalan, California Consumer Privacy Act (CCPA) davlatida shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha yangi yondashuvni taqdim etadi. Bu qonun, foydalanuvchilarga o'z ma'lumotlari ustidan to'liq nazoratni ta'minlashni maqsad qilgan va kompaniyalar uchun shaxsiy ma'lumotlar bilan ishlashda shaffoflikni ta'minlashni talab qiladi.

Shaxsiy hayot daxlsizlik huquqining konstitutsiyaviy kafolatlari masalasi hozirgi davr huquqiy maydonagi eng muhim masalalardan biri hisoblanadi. Shaxsiy hayot daxlsizligi huquqi yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31-moddasida quyidagicha o'z tasdig'ini topgan “Har bir inson shaxsiy hayotining daxlsizligi, shaxsiy va oilaviy sirga ega bo'lish, o'z sha'ni

va qadr-qimmatini himoya qilish huquqiga ega. Har kim yozishmalari, telefon orqali so‘zlashuvlari, pochta, elektron va boshqa xabarlari sir saqlanishi huquqiga ega. Ushbu huquqning chekhanishiga faqat qonunga muvofiq va sudning qaroriga asosan yo‘l qo‘yiladi. Har kim o‘z shaxsiga doir ma’lumotlarning himoya qilinishi huquqiga, shuningdek noto‘g‘ri ma’lumotlarning tuzatilishini, o‘zi to‘g‘risida qonunga xilof yo‘l bilan to‘plangan yoki huquqiy asoslarga ega bo‘lmay qolgan ma’lumotlarning yo‘q qilinishini talab qilish huquqiga ega”. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz asosida milliy qonunchilikni ham takomillashtirish jarayonlari allaqachon boshlanib ketdi. Binobarin, “Amaldagi qonunlarimizda shaxsga doir ma’lumotlar masalasi qay taxlit o‘z aksini topgan?”, degan savol tug‘ilishi tabiiy.

Bu o‘rinda mamlakatimizda, birinchi navbatda, 2019 yil 1-oktabrdan “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi qonun kuchga kirganini qayd etish maqsadga muvofiqdir. Mazkur qonunda davlat shaxsga doir ma’lumotlarning himoya qilinishini kafolatlashi, jismoniy shaxsning rozilgisiz yoki boshqa qonuniy asos mavjud bo‘lmagani holda shaxsga doir ma’lumotlarni oshkor etish va tarqatishga yo‘l qo‘yilmasligi belgilab qo‘yilgan. Shuningdek, Qonunning 7-moddasi, ya’ni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining shaxsga doir ma’lumotlar sohasidagi vakolatlariga taalluqli normalar ijrosini ta’minalash maqsadida Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2022yil 5-oktabrda “Shaxsga doir ma’lumotlarga ishlov berish sohasidagi ayrim normativ-huquqiy hujjalarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qaror qabul qilingan. Mazkur qaror bilan sohaga oid ikkita muhim normativ-huquqiy hujjat tasdiqlandi. Bulardan biri – “Shaxsga doir ma’lumotlarga ishlov berishda ularning himoya qilinganlik darajasini belgilash to‘g‘risidagi nizom” bo‘lsa, ikkinchisi – “Biometrik va genetik ma’lumotlar mavjud bo‘lgan moddiy jismlarga hamda bunday ma’lumotlarni shaxsga doir ma’lumotlar bazalaridan tashqarida saqlash texnologiyalariga oid talablar to‘g‘risidagi nizom”dir.

Birinchi Nizom shaxsga doir ma’lumotlar bazasi mulkdor va operatorlari tomonidan shaxsga doir ma’lumotlarga ishlov berishda ushbu ma’lumotlarning xavfsizligiga bo‘lgan tahdidlardan kelib chiqib, ularning himoya qilinganlik

darajasini belgilaydi. Unga ko'ra, "Shaxsga doir ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash mulkdor va (yoki) operatorlar yoxud ular mas'ul etib belgilagan shaxslar tomonidan amalga oshiriladi".

Ikkinci Nizomda biometrik va genetik ma'lumotlar mavjud bo'lgan moddiy jismlarga hamda bunday ma'lumotlarni shaxsga doir ma'lumotlar bazalaridan tashqarida saqlash texnologiyalariga oid talablar belgilab berilgan. Mazkur Nizom talabiga binoan, "Biometrik va genetik ma'lumotlarga ishlov berish maqsadida foydalaniladigan har qanday moddiy jismlar qonunchilikda belgilangan tartibda "maxfiy" yoki "xizmat doirasida foydalanish uchun" grifi bilan belgilanishi lozim".

Shubxasiz, bosh qomusimiz hisoblangan Konstitutsiyamiz bilan shaxsga doir ma'lumotlarning sir saqlanishi va himoya qilinishi belgilab qo'yilganligi ushbu ma'lumotlarning havfsizligini ta'minlash muxim ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi. Shu bilan birgalikda, Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risidagi qonunda belgilangan qoidalar buzilgan taqdirda javobgarlikni nazarda tutuvchi normalar Jinoyat qonunchiligidan kiritildi. Shuningdek, bir qator xorijiy davlatlar jinoyat qonunchiligidan xusan, Latviya Jinoyat kodeksining 281-moddasida, Turkmaniston Jinoyat kodeksining 146- moddasida, Litva Jinoyat kodeksining 167-moddasida, Qozog'iston Jinoyat kodeksining 147-moddasi 3-qismida, Qirg'iziston Jinoyat kodeksining 186-moddasida, Tojikiston Jinoyat kodeksining 144-moddasida birovning shaxsiy yoki oilaviy siri to'g'risidagi ma'lumotni uning roziligesiz noqonuniy toplash yoki tarqatish yoki ommaviy axborot vositalarida nutqda, ishda, ommaviy axborot vositalarida yoki internetda, agar bu xattiharakatlar xudbinlik yoki boshqa shaxsiy manfaatlarni ko'zlab sodir etilgan bo'lsa va bunday ma'lumotlarni tarqatgan bo'lsa, fuqaroning huquqlari va qonuniy manfaatlari zarar yetkazganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilangan.

Bundan tashqari, texnologiyaning jadal rivojlanishi, jumladan, sun'iy intellekt va biometrik identifikasiya, paydo bo'layotgan tahdidlarni bartaraf etish va shaxsiy hayot daxlsizligini himoya qilish uchun qonunchilik bazasini doimiy yangilab borish talab etiladi. Shu bilan birga, hech bir fuqaro turli xil sabablarga

ko'ra, o'zi haqidagi shaxsiy ma'lumotlarning keng doirada odamlarga ma'lum bo'lishini xohlamaydi. Shu sababli, sun'iy intellektning shaxsga doir ma'lumotlar daxlsizligiga ta'sirini tahlil qiladigan bo'lsak, so'ngi yillarda sun'iy intellekt texnologiyalarining yangi avlodи dunyoga keldi. Sun'iy intellekt qanday olamshumul darajada rivojlanayotgan bo'lsa, o'z navbatida, uni tartibga solishga qaratilgan chaqiriqlar ham shunday ko'lamda izchil ortayapti. Haqiqatan ham, bugungi globallashuv jarayonlarida shaxsning shaxsiy yoki oilaviy sirini tashkil etuvchi shaxsiy hayoti to'g'risidagi ma'lumotlarni uning roziligesiz qonunga xilof ravishda yig'ish yoki tarqatish holatlari bot-bot kuzatilmoqda. Ayrim ommaviy axborot vositalari yoki ba'zi bir blogerlar shaxsning obro'si, sha'ni va qadr-qimmatini tushiradigan axborot tarqatganligi uchun sud oldida javobgar bo'layotgani ham statistik ma'lumotlarda ko'rinib qolmoqda. Kibermakon global axborotkommunikasiya infratuzilmasida markaziy o'ringa chiqqani sababli hozir ijtimoiy tarmoqlarda shaxsga doir ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash asosiy vazifaga aylandi. Suniy intellekt, internet tarmoqlari bir qancha qulaylik va afzalliklarga ega bo'lsada, kamdan-kam foydalanuvchilar tarmoqqa joylashtirayotgan ma'lumotlari qanchalik himoyalangani haqida o'laydi. Haqiqatan, dunyo bo'ylab har daqiqada millionlab insonlar shunga o'xhash tizimlarga shaxsiy ma'lumotlarini, jumladan, ism-familiyasi, tug'ilgan sanasi, suratlariyu kundalik hayotiga oid turli lavhalarni joylamoqda. Biroq har doim ham ushbu ma'lumotlarning xavfsizligi ta'minlanmaydi. Bu kabi holatlarning oldini olish uchun har kim hozirgi vaqtida jadal tarzda rivojlanib borayotgan suniy intellekt texnologiyasidan to'g'ri maqsadda foydalanishi va shaxsga doir ma'lumotlar havfsizligini ta'minlash qoidalariga rioya etishlari zarur.

Xulosa qilib aytganda, shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish raqamli muhitda shaxsiy hayot daxlsizligi huquqini ta'minlashning asosiy jihatni hisoblanadi. Shaxsiy hayot daxlsizlik huquqi va shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir, shuningdek, bugungi raqamli muhitda shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish ushbu huquqni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilishda normativ-

huquqiy hujjatlar zarur poydevor bo'lsa-da, muammolarni hal qilish uchun fuqarolarning xabardorligini oshirish va texnologik taraqqiyotga moslashish uchun doimiy harakatlar talab etiladi. Jamiyat shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilishga ustuvor ahamiyat berish orqali demokratik tamoyillarni qo'llab-quvvatlashi, raqamlı texnologiyalarga bo'lgan ishonchni mustahkamlashi va o'zaro bog'liqlik kuchayib borayotgan dunyoda shaxsiy hayot daxlsizligi huquqini himoya qilishi mumkin. Shu o'rinda mamlakatimizda amalga oshirilgan konstitutsiyaviy islohot asnosida Asosiy Qonunimizni inson huquqlarini, jumladan, shaxsga doir ma'lumotlarni yanada keng darajada himoyalaydigan normalar bilan boyitishga alohida e'tibor qaratilganini ta'kidlash lozim. Konstitutsiyaviy islohotlar tufayli inson qadrini ulug'lash, avvalo, har bir insonning shaxsiy huquq va erkinliklari, xususan, shaxsiy hayoti, sha'ni, qadr-qimmati, obro'si, ishchanlik darajasi, jamiyatda tutgan mavqeini yuksaltirish hamda shaxsga doir ma'lumotlar daxlsizligini ta'minlashga qaratilgan bunday konstitutsiyaviy-huquqiy sa'y-harakatlarning mohiyati ham, ahamiyati ham kattadir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son. <https://lex.uz/docs/-6445145>;
2. O'zbekiston Respublikasi "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi qonuni. 02.07.2019 yildagi O'RQ-547-son. <https://lex.uz/docs/-4396419>;
3. <https://www.un.org/rus/about-us/universal-declaration-of-human-rights>;